

## ZAMONAVIY QO'G'IRCHOQ TEATR REPERTUAR ASARLARINI YARATISHDA OBRAZ VA NUTQNING AHAMIYATI

**A'zamov Nodirbek Vaxobjon o'g'li**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Teatr san'ati fakulteti "Qo'g'irchoq teatri aktyorligi"  
mutaxassisligi 1-bosqich magistri



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kundagi zamonaviy qo'g'irchoq teatr asarlarini yaratishda repertuar masalalari hamda unda obraz va nutqning ahamiyati xususida batafsil ma'lumotlar bildirib o'tilgan. Shuningdek, qo'g'irchoq teatrida sahna asarlarini yaratishda qo'yiladigan talablar, obraz va nutq masalalariga alohida to'xtalib fikr-mulohaza bildirilgan.

**Kalit so'z:** qo'g'irchoq teatri, obraz, nutq, repertuar asar, sahna talqini, tembr, ijodkorlik qobiliyati

## ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗА И РЕЧИ В СОЗДАНИИ РЕПЕРТОРИАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СОВРЕМЕННОГО ТЕАТРА КУКОЛ

**Азамов Нодирбек Вахобджон ўғли**  
Государственный институт искусства и культуры Ўзбекистана  
Факультет театрального искусства  
«Актерское мастерство театра кукол»  
специальность мастер 1 степени

**Аннотация:** В данной статье дана подробная информация по вопросам репертуара и значения образа и речи в создании произведений современного театра кукол. Кроме того, были высказаны мнения с особым акцентом на требования к созданию сценических произведений в театре кукол, вопросы имиджа и речи.

**Ключевые слова:** театр кукол, образ, речь, репертуарное произведение, сценическая интерпретация, тембр, творчество.

## IMPORTANCE OF IMAGE AND SPEECH IN CREATING MODERN PUPPET THEATER REPERTORY WORKS

**Azamov Nodirbek Vakhobjon uglu**

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan  
Faculty of Theater Arts "Puppet Theater Acting"  
specialty 1st stage master

**Abstract:** This article provides detailed information about the issues of repertoire and the importance of image and speech in the creation of modern puppet theater works. In addition, opinions were expressed with special emphasis on the requirements for the creation of stage works in the puppet theater, image and speech issues.

**Key word:** puppet theater, image, speech, repertoire work, stage interpretation, timbre, creativity

Ijodkorlik qobiliyati-bu insonning ongida va xatti-harakatlarida nazarda tutilgan , yangi ma'lumotlar-maxsulotini yaratib, boshqalarga ulashishiga aytiladi. Ushbu tushunchaga ko'ra, nafaqat rasm, mashina, nazariya yaratilishi, balki insonning shaxsiy rivojlanishining barcha faktlari ham yaratuvchi sifatida qaralishi mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar, "ijodkorlik" atamasini qisqartirib, bilimga oid faoliyatni, ya'ni muammoni yoki voqeani yangi yoki noan'anaviy tarzda ko'ra olishni o'z ichiga olgan.[1;15]

Zamonaviy psixologiya va pedagogika fani ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bunda san'atning barcha turlari, nafaqat bolalarning badiiy qobiliyatlarini, balki "inson faoliyatining barcha sohasida amalga oshadigan"- ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Bola san'atga qanchalik erta kelib qolsa, rivojlanish jarayoni ham


effektiv bo'ladi. Ma'lumki, teatr hayotning ko'rgazmali shaklining badiiy aksi bo'lib, obrazlar orqali dunyoni qabul qilishga asoslanadi.

Qo'g'irchoq teatrda ma'no va mazmunni ifodalashning o'ziga xos vosita, aktyorlar o'yinida paydo bo'ladigan sahna asaridir. Biroq bolalarni asosiy estetik ta'limi sohasida musiqiy-teatr faoliyati eng kam rivojlangan yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Tabiatga ko'ra, teatr san'ati bolalarning rolli o'yinlariga yaqin, yani bolalar jamoasi faoliyatiga. Bolalar o'yinlari va teatrning eng muhim komponenti *rol bo'lib*, atrof-muhitni o'rganish va anglashning badiiy aksi. Ushbu jarayonlarni tashkil qilishning shakllaridan biri - *o'yin* - ya'ni rol ijrosi va aktyorlik.[2;67]

Sahnalashtirish mashg'ulotlarining musiqiy komponenti teatrning taraqqiyoti va ta'limiy salohiyatini kengaytirishdir, emotsional effektni kuchaytirishda bola dunyoni hiss qilishi va kayfiyatiga ta'sir etishi, shuningdek musiqa tilining fikri va hissiyoti, teatrda mimika va jestga qo'shiladi.

Bunday holatlarda bolalar sensor-perspektiv analizatorlarining (kuzatuvchi, eshitish, harakatli) hajmi va miqdori ortadi.



Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari "rol o'ynash", "qo'shiq aytish" va "raqsga" tushishlarga tabiiy moslashadilar, teatrlashtirilgan va musiqiy sahna ko'rinishlarini qabul qilish orqali bolada katta qiziqish uyg'otib, unda ishtirok etishlari xohish-istagini bildiradi. Teatr va musiqa ijodiyoti bolalar ehtiyojlarni qondirish bilan muammolardan ozod qiladi, u quvonchli daqiqalar va katta zavqni his qiladi. Rol ijrosidagi matn va musiqiy qo'shiq so'zlari hissiy tizimlar bilan bog'langanligi tufayli, bola matnlar mazmunini tushuna boshlaydi va ijro jarayonida qo'shilishi, sahnaga qarashi, xatto "o'zi" ga ham qarash tajribasini egallashga, uni tuzatishga va uni baholashga o'rganib boradi.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish. Shunday qilib, sahnalashtirish faoliyati orqali bolalar ijodiy qobiliyatini va bola shaxsini kompleks rivojlanish bilan bog'liq qator vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Aynan:

- tarbiyalanuvchilar aktyorlik ifoda vositasi va teatr xaqidagi dastlabki bilimlarini shakllantirishga yordam berish;

- tarbiyalanuvchilar mustaqil musiqiy-teatr faoliyati talablarini rivojlantiradi;

- tarbiyalanuvchilarda teatr san'atiga bo'lgan qiziqishlari o'yg'onadi;

- atrofdagi xodisalarga bo'lgan shaxsiy – yahlit estetik munosabatlarini shakllantiradi;

- diqqatni, xotirani, xayolotni, fikrlashni, nutqni, hissiy va ixtiyoriy sohani, intellektual, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari adabiyot, musiqa, teatrga bo'lgan qiziqishlarini sahnalashtirish faoliyati orqali uyg'otadi, ma'lum hissiyotlarni o'yin mahorati orqali mujassamlashtiradi, yangi obrazlarni yaratishga va fikrlashga undaydi. Teatr bolaning hissiy dunyosiga katta ta'sir ko'rsata oladi. Bugungi kunda bolalarda diqqat va nutq, ixtiyoriy xatti-xarakatlari, xotirasining yetarlicha rivojlanmagani ko'plab ota-onalar, psixologlar va

tarbiyachilarni o'ylantirmoqda. Bola tilidan bayon etish, fantaziyalash, o'ynash orqali- bolaning qisiqligini yechish, erkin emotsional bo'lishining eng qisqa yolidir. Bu barcha ishlarni sahnalashtirish yordamida bajarish mumkin. [3;57]



Shunday qilib, bevosita sahnalashtirish faoliyatida bolaning teatrlarga borishi, bolalar spektakli va namoyishlarini tomosha qilibgina qolmasdan teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etishi, teatrlashtirilgan to'garaklarga va mashg'ulotlarga borishini tavsiya qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda bugungi kunda ko'plab rivojlantiruvchi dasturlar yaratilmoqda. Ular bunday holatlarni o'zlashtirish uchun aniq mazmunga ega, o'quv materialini o'z ichiga oladi:

- Bolalar oddiy musiqiy-sahnaviy bilimlarini ifodalay olishi (improvizatsiya, fantaziya, etyud) va aktyorlik mahorati vositasi orqali yonalishni olish.
- Maxsuldorlik faoliyatda ushbu bilimlarni rivojlantirish va mustaxkamlash, aynan musiqiy- teatrlashtirilgan namoyishlarda amalga oshadi.
- Qo'g'irchoq teatr san'atining paydo bo'lishi va tashkil topishi, shuningdek musiqiy teatrlar xaqida dastlabki bilimlari shakllanishi.



Mashg'ulotlarning mazmuni va qoidasi; individual va jamoaviy harakatlariga o'rgatishda bolalarni atrofdagi haqiqatni his qilishi, uni tahlil va nazorat qilish; bolalarning aktyorlik ifoda vositasi asosida pantomimik va og'zaki hissiyotlarga va verbal-emotsional improvizatsiyaga asoslangan, shuningdek, musiqiy- sahna faoliyatida vokal-xor va musiqiy-ritmik komponentlarini o'zlashtirishi; so'z omonligi va sahna nutqi ko'nikmalarini egallashi, aktiv ijodiy unumdorlik faoliyatiga qamrab oladi.[4;78]

Bolalarning badiiy-ijodiy faoliyatini tuzishda maktabgacha ta'lim muassasalarining guruhlarida xar –xil burchaklar tashkil qilingani ishni osonlashtiradi( musiqiy, teatrlashtirilgan burchaklar va h.k.)

Taniqli musiqachilar, rassomlar, san'atkorlarning ijodiy mahoratini namoyish etish orqali, tabiiyki bolalar ijodiy shiddati va qiziqishini namoyon eta boshlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyachisiga mustaqil ijodiy faoliyatni boshqarishda bevosita ko'plab usul va uslublar tavsiya etilyapti, shuningdek turli hildagi sahnaviy mashg'ulotlar jarayonida bolalar bilan ishlash shakli xam berilyapti. Teatr faoliyati bo'yicha mashg'ulotlar mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- spektakllarni oldin va keyin tomosha qilib suhbat qurish va bolalar

teatrlariga tashrif buyurish;

- mashg'ulotlarga o'yin-dramatizatsiyani kiritish;
- turli ertak va insseniroykalarni tayyorlash va oynash;
- ifodali ijro shakllanishi uchun mashqlar ( verbal va noverbal);
- bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi maqsadida mashqlar bajarish.



Sahnalashtirish faoliyati mashg'ulotlarining mazmuni nafaqat asarning adabiy matni bilan tanishish, balki mimika, xarakter, kostyum, mizansensa(spektaklining ayrim paytlarida dekoratsiya va aktyorlarning joylanishi),imo-ishora, ya'ni "belgilar", ifodali nutqda rol ijro etishdan iborat.[5;112]

Qo'g'irchoq teatr faoliyatidagi mashg'ulotlar bir qator funktsiyalarni bajaradi: bilim, ta'lim va taraqqiyot. Ularning vazifasi nafaqat o'yinlarga tayyorgarlik ko'rish. Ushbu vazifani olib borishning mazmuni, shakllari va usullari bir vaqtning o'zida uchta asosiy maqsadni amalga oshirishi kerak:

- nutq va teatrlashtirilgan qobiliyatlarni rivojlantirish;
- ijodkorlik muhitini yaratish;
- bolalarni ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlantirish.

Qo'g'irchoq teatr faoliyatini tashkil etishda tarbiyachi katta rol o'ynaydi, usbu jarayonni mohirlik bilan boshqaradi. Tarbiyachi nafaqat ifodali so'zlashi

yoki o'qib berishi kerak, balki qarashni, ko'rishni, tinglashni va eshitishni xam bilishi lozim, ammo har qanday "obrazga kirishish"ga xam tayyor bo'lishga majbur, yani aktyorlik mahoratini egallagan bo'lishi va rejisyorlik malakalariga ega bo'lishi shart. Aynan shu mahoratlar ijodiy potensialni oshiradi va bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini o'zlashtirishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
2. Sayfuddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. T.: Fan, 2008.
3. Islomov T. Tarix va sahna – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2018.
4. Rizayev Sh. Sahna ma'naviyati – T.: Ma'naviyat, 2020.
5. Rizayev Sh. Iztirob san'ati – T.: Yangi asr avlodi, 2019.
6. Qodirov M. Sahnemiz lochinlari –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2019.